TARIX

1.

Nomuvofiq berilgan javobni aniqlang.

A) *hukmdor Ashoka – Maurya davlati*

B) *hukmdor Sargon I – Shumer-Akkad davlati*

C) *hukmdor Diodot – Xett podsholigi*

D) *hukmdor Salavk – Suriya davlati*

2.

Quyidagi hukmdorlar hukmronligi davrida ro‘y bergan **voqealar yoki ularga tegishli ma‘lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan** javobni belgilang.

1) Tutmos III; 2) Sargon I; 3) Xammurapi;

a) birlashgan Shumer-Akkad podsholigini boshqargan mashhur Ur davlatining III sulolasini asoschisi bo‘lgan; b) mil.avv. 525-yili rasman Misr fir’avni deb e‘lon qilindi va yangi XXVII sulolaga asos soldi; c) 55 yillik hukmronligi (mil.avv. 2316-2261-yy.) natijasida Old Osiyoda markazi Akkad bo‘lgan, yagona hukmdor qo‘l ostida birlashtirilgan, o‘z davrining buyuk davlatiga asos soldi; d) uning hukmronligining (mil.avv. 1792-1750-yy.) 35 yili butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirishga va Bobilni uncha katta bo‘lmagan shahardan Old Osiyoning ulkan iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaziga aylanishiga sarflandi; e) Nineviyada u tomonidan Qadimgi Sharqdagi sopol taxtachalardan iborat yirik kutubxona jamlangan edi; f) u Suriya-Falastin koalitsiyasini tor-mor qildi, Old Osiyoda misrliklar hukmronligi o‘rnatildi.

A) *1-a, 2-c, 3-e* B) *1-a, 2-b, 3-d*
C) *1-f, 2-b, 3-e* D) *1-f, 2-c, 3-d*

3.

Rim imperiyasining avvalgi hududlarini va qudratini qayta tiklamoqchi bo‘lgan o‘rta asrlardagi hukmdorni aniqlang.

A) *Karl X* B) *Konstantin* C) *Yustinian I*
D) *Lyudovik XIV*

4.

Quyidagi tarixiy voqealar (ma’lumotlar) **to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda ko‘rsatilgan** javobni aniqlang.

1) Bolqonning mustaqil davlatlari Bolqon ittifoqini tuzdilar; 2) Ikkinchi Bolqon urushi yakunlandi; 3) "Stolipin agrar islohoti" boshlandi; 4) Birinchi jahon urushi yakunlandi; 5) Buyuk Britaniyaning Bur Respublikalariga qarshi urushi yakunlandi; 6) Panama mustaqil respublika deb e’lon qilindi.

A) *5, 6, 3, 1, 2, 4* B) *5, 6, 3, 4, 1, 2*
C) *6, 5, 3, 1, 2, 4* D) *5, 6, 1, 3, 2, 4*

5.

Quyida berilgan **atamalarni ularning izohi bilan to‘g‘ri moslashtiring**.

1	Iyerarxiya	**a**	pastdan yuqoriga qarab amal pillapoyasi bo‘yicha bo‘ysunish tartibi
2	Globallashuv	**b**	bu bitta tizim yoki shaklga keltirish
3	Strategiya	**c**	jahon mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy jihatdan birlashishi yoki yaqinlashish jarayoni
4	Sanksiya	**d**	bu tovarlar, yuklar va shu kabilarni bir hududdan boshqasiga yetkazib berishning tizimini tashkil qilish
5	Konservatizm	**e**	suveren davlatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, moliya, investitsiya, ishchi kuchi erkin harakatlanadigan iqtisodiy kenglikni tashkil qilish maqsadida birlashish jarayoni
		f	hukumatning ishlab chiqarish, daromad va xarajat, budjet, soliq, kapital kiritish, narx-navo, ijtimoiy himoya borasidagi uzoq muddatli, eng muhim tadbirlari rejasi
		g	davlatning xalqaro maydonda olib boradigan tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyati yo‘nalishlari
		h	xalqaro kelishuv va normalarni buzgan bir guruh shaxslar yoki butun boshli davlatga nisbatan qo‘llaniladigan cheklov chorasi
		i	an’anaviy qadriyatlar, urf-odatlar, ijtimoiy va diniy tartiblar tarafdori bo‘lgan siyosiy oqim

A) *1-b, 2-d, 3-e, 4-h, 5-g* B) *1-b, 2-c, 3-f, 4-h, 5-g* C) *1-a, 2-c, 3-f, 4-h, 5-i* D) *1-a, 2-c, 3-e, 4-f, 5-i*

6.

Quyida berilgan **atamalarni ularning izohi bilan to‘g‘ri moslashtiring**.

1	Anarxizm	**a**	alohida bir shaxsning xohish-irodasinigina tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi ta’limot
2	Ekspansiya	**b**	taraqqiyotga qarshi, eskirgan ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish tarafdori bo‘lgan siyosiy kuch
3	Segregatsiya	**c**	mustamlakachi davlatlarning o‘zgalar hududini va bozorlarini, xomashyo manbalarini bosib olishga, siyosiy va iqtisodiy ta’sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan siyosatlari
4	Separatizm	**d**	bir yoki bir qancha davlatlarga qarshi birlashib harakat qilish uchun ikki yoki undan ko‘p davlatlarning tuzgan vaqtinchalik harbiy-siyosiy ittifoqi
5	Reparatsiya	**e**	biror davlatda tub joy aholisining omon qolgan qismini zo‘rlab joylashtirish uchun ajratilgan hudud
		f	ayrim davlatlarda aholini majburan irqiy guruhlarga bo‘lish
		g	yahudiylarga qarshi milliy, irqiy dushmanlikni avj oldirish siyosati
		h	xalqaro huquqda ittifoqchi davlatlarning biri tomonidan ittifoqchilar ruxsatisiz va ular bilan kelishmay turib, urushayotgan dushman davlat bilan tuzilgan bitim
		i	xalqaro huquqda urushda ko‘rilgan zararni to‘la yoki qisman qoplash uchun yengilgan davlat tomonidan g‘olib davlatda to‘lanadigan tovon

A) *1-b, 2-c, 3-d, 4-h, 5-g* B) *1-a, 2-c, 3-f, 4-h, 5-i* C) *1-b, 2-c, 3-e, 4-f, 5-h* D) *1-a, 2-d, 3-f, 4-g, 5-i*

7.

Quyidagi ma’lumotlar asosida tarixiy shaxsni aniqlang.

U davlat arbobi bo‘lgan. U AQSh prezidenti etib demokratik partiyadan saylangan. 1917-yilning 6-aprel kuni AQSh hukumati Germaniyaga urush e’lon qildi. U Birinchi jahon urushidan so‘ng imzolanadigan tinchlik shartnomasi va qayta tuzilajak dunyo siyosiy xaritasi bo‘yicha AQSh hukumatining nuqtayi nazarini dunyoga ma’lum qildi. Biroq Parij tinchlik konferensiyasi (1919-1920) yakuni u kutgan natijani bermadi, chunki Buyuk Britaniya va Fransiya jahon siyosatida o‘z mavqeini saqlab qoldi.

A) *V.Taft* B) *V.Vilson* C) *F.Ruzvelt*
D) *T.Ruzvelt*

8.

Quyidagi ma’lumotlar asosida **tarixiy davlatni** aniqlang.

Bu qirollik Koreya yarimorolining janubi-sharqida joylashgan. 668-yilda Xitoydagi Tan sulolasi bilan ittifoq tuzib, Koreya yarimorolini o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan bo‘lsa-da, biroq Xitoyga boj-yasoq to‘lab turgan. Mamlakatning birlashuvi Koreyada yer egaligi munosabatlarining uzil-kesil shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. O‘zaro urushlarga chek qo‘yilishi, qo‘shni davlatlar bilan tinchlik o’rnatilishi mamlakatda ishlab chiqarish kuchlari rivojiga yo‘l ochadi. VIII asr o‘rtalarida bu davlatning oltin davri boshlandi. Ushbu davrda davlat o‘z taraqqiyoti va qudratining cho‘qqisiga erishadi.

A) *Koguryo qirolligi* B) *Silla qirolligi*
C) *Koryo qirolligi* D) *Pekche qirolligi*

9.

Qo‘qon xonligida mavjud bo‘lgan **harbiy lavozimlarning** (XVIII asr II yarmi – XIX asr) vazifasi to‘g‘ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1) mingboshi; 2) botirboshi; 3) valiy; 4) qo‘rboshi; 5) yovar.

a) o‘z qo‘shiniga ega beklik hokimi; b) oliy qo‘mondon; c) o‘z tug‘iga ega bo‘lgan harbiy bo‘linma boshlig‘i; d) bekliklardagi harbiy ishning ahvoli uchun mas’ul shaxs; e) noib, artilleriya qo‘mondoni; f) 500 nafardan iborat harbiy qo‘shin qo‘mondoni; g) qurol-aslaha ishlab chiqarish ustaxonasi va omborxona boshlig‘i; h) to‘pchilar bo‘linmasining boshlig‘i; i) amiri lashkar maxsus bo‘linma boshlig‘i.

A) *1-a, 2-g, 3-e, 4-c, 5-i*
B) *1-b, 2-d, 3-f, 4-g, 5-h*
C) *1-b, 2-d, 3-e, 4-g, 5-i*
D) *1-a, 2-g, 3-e, 4-f, 5-h*

10.

O‘rta Osiyo davlatlarining **XIX asr tarixiga xos bo‘lgan ma’lumotni** aniqlang.

A) *Andijon qo‘zg‘olonining chor hukumati tomonidan bostirilishi*
B) *Markazi Qo‘qon shahri bo‘lgan Turkiston Muxtoriyatining e’lon qilinishi*
C) *Xivaning so‘nggi xonining taxtga o‘tirishi*
D) *Buxoro amirligida so‘nggi amir hukmronligining boshlanishi*

11.

Turkiston Muxtoriyati hukumati vazirlarining aksariyati oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan va yuqori malakali mutaxassislar hisoblangan. **Turkiston Muxtoriyati vazirlarini ularning mutaxassisliklari bo‘yicha moslashtiring.**

1) Hidoyatbek Yurg‘uli Agayev; 2) Muhammadjon Tinishboyev; 3) Obidjon Mahmudov; 4) Ubaydulla Xo‘jayev;

a) huquqshunos; b) agranom; c) temiryo‘l muhandisi; d) tog‘-kon sanoati mutaxassisi.

A) *1-b, 2-c, 3-d, 4-a* B) *1-b, 2-c, 3-a, 4-d*
C) *1-c, 2-a, 3-d, 4-b* D) *1-b, 2-a, 3-d, 4-c*

12.

Bugungi kunda O‘zbekistonda nechta diniy konfessiya o‘zaro totuvlikda faoliyat ko‘rsatmoqda?

A) *17 ta* B) *18 ta* C) *20 ta* D) *16 ta*

13.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi ma’lumotlarni aniqlang.

1990-yil 1-noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasida ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni, 1978-yil qabul qilingan) ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi qonuniga ko‘ra . . . .

1) O‘zbekistonda Prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo‘shib yuborildi;
2) O‘zbekiston Respublikasining vitse-prezidenti Vazirlar Mahkamasining raisi bo‘ldi;
3) O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi;
4) O‘zbekiston SSR konstitutsiyasida Ministrlar Soveti faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va Bosh vazir vakolatlari aniq belgilab berildi;
5) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining raisi bo‘ldi;
6) O‘zbekistonda Ministrlar Sovetining ijroiya boshqaruv hokimiyati Prezidentlik hokimiyatidan ajratildi.

A) *2, 3, 4* B) *2, 5, 6* C) *1, 3, 5* D) *1, 4, 6*

14.

Quyidagi tarixiy voqealar (ma‘lumotlar) **to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda ko‘rsatilgan** javobni aniqlang.


1) Toshkent traktor zavodi qurildi;
2) Normuhammadi Xudoyberdiyev O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raisi etib tayinlandi; 3) Toshkent metropolitenining birinchi yo‘nalishi (9 ta bekat) foydalanishga topshirildi; 4) Sharof Rashidov O‘zbekiston Kompartiyasi MKning birinchi sekretari etib saylandi; 5) Yodgor Nasriddinova SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi lavozimiga tayinlandi; 6) dunyodagi eng yirik Muruntov oltin koni foydalanishga topshirildi.

A) *4, 6, 1, 5, 2, 3* B) *4, 5, 6, 3, 1, 2*
C) *3, 1, 6, 4, 2, 5* D) *3, 6, 1, 4, 2, 5*

15.

Mustamlakachilik endi o‘tmish ekanligini tushungan Fransiya 1960-yilda o‘zining Afrikadagi deyarli barcha mustamlakalariga mustaqillik berdi.

Xaritada raqamlar bilan belgilangan davlatlardan qaysilariga ushbu davrda Fransiya tomonidan mustaqillik berilgan?



A) *2, 3, 4, 5* B) *1, 3, 4, 6* C) *1, 2, 4, 6* D) *2, 3, 5, 6*

16.

Quyidagi jadvalning qaysi qatorlarida keltirilgan **tarixiy voqealarning natijalari to‘g‘ri berilgan**?

№	Voqea	Natija
1	Italiyaning Germaniya va Avstriya-Vengriya ittifoqiga qo‘shilishi	"Uchlar ittifoqi"ning tashkil topishi
2	Buyuk Britaniyada parlament islohoti to‘g‘risidagi qonunning qabul qilinishi	Parlamentning yuqori palatasi – Lordlar palatasi veto huquqlarining cheklanishi
3	Ingliz-bur urushi	Bur Respublikalarining (Transvaal va Oranj) Britaniya mulklari tarkibiga qo‘shib olinishi
4	Berlin traktatining imzolanishi (1878-yil)	Ruminiya, Serbiya va Chernogoriyaning Rossiya tarkibiga qo‘shib olinishi
5	Rus-yapon urushida (1905-yil) Rossiyaning mag‘lubiyati	Rossiya Koreyani Yaponiyaning ta’sir doirasida deb tan olishi
6	Avstriya hukumati tomonidan "Favqulodda qonun"ning joriy etilishi (1884-yil)	Kasaba uyushmalarining tarqatib yuborilishi va ishchi gazetalarini nashr qilinishining to‘xtatilishi
7	Birinchi Bolqon urushi (1912-yil)	San-Stefano shartnomasining imzolanishi

A) *2, 3, 4, 5, 6* B) *2, 3, 4, 5, 7* C) *1, 2, 3, 5, 6* D) *1, 2, 4, 6, 7*

17.

Jadvalning harflar bilan belgilangan katakchalariga **mos keluvchi ma'lumotlar to'g'ri ko'rsatilgan** javobni belgilang.

Asr	**O'zbekiston tarixiga oid voqea**	**Jahon tarixiga oid voqea**
XII	**a**	**b**
c	Mahmud Torobiyning mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonining boshlanishi	**d**
e	**f**	Eronda Safaviylar sulolasi hukmronligining yakunlanishi
XIX	**g**	**h**
i	Xurosonda Safforiylar sulolasining hokimiyatga kelishi	**j**
VIII	**k**	**l**

Ma'lumotlar: 1) Orenburg-Toshkent temiryo'li qurilishining yakunlanishi; 2) VII asr; 3) G'aznaviylar davlatining butunlay tugatilishi; 4) XVIII asr; 5) normannlar tomonidan Londonning bosib olinishi va yoqib yuborilishi; 6) Xorazmda Anushteginlar sulolasining hukmronligi tugatilishi; 7) XI asr; 8) Angliyada birinchi parlamentning chaqirilishi; 9) Buxoro amirining buyrug'iga ko'ra Ost-Indiya kompaniyasi vakillari polkovnik Charlz Stoddart va kapitan Artur Konollining qatl qilinishi; 10) G'urak va Divashtich qo'zg'olonining boshlanishi; 11) ikkinchi salib yurishining boshlanishi; 12) XIII asr; 13) Koryo sulolasi hukmronligining boshlanishi; 14) Angliyada "Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi assotsiatsiyasi"ning tuzilishi; 15) XVII asr; 16) A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasining Rossiyadan Xivaga jo'natilishi; 17) Xitoyda Tan sulolasining hokimiyatga kelishi; 18) IX asr; 19) Italiyada Rim papalari davlati − Papa viloyati tashkil topishi; 20) Rossiya elchisi I.D.Xoxlovning Buxoroga kelishi.

A) *a-6, b-17, c-7, d-8, e-15, f-16, g-1, h-14, i-18, j-2, k-3, l-19*


B) *a-3, b-11, c-12, d-8, e-4, f-16, g-9, h-14, i-18, j-5, k-10, l-19*

C) *a-3, b-17, c-7, d-13, e-15, f-20, g-1, h-19, i-18, j-2, k-10, l-14*

D) *a-6, b-11, c-12, d-13, e-4, f-20, g-9, h-19, i-15, j-5, k-3, l-14*

18.

Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib **Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan** javobni aniqlang.



a) Antonio Salazarning siyosiy rejimi Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatda o'zining konservativ, avtoritar-fashistik belgilarini saqlab qolgan;
b) 1946-yili o'tkazilgan parlament saylovlari mamlakatda fuqarolar urushining boshlanishiga olib keldi;
c) mamlakat Bosh vaziri Marselu Kaetanu diktatorlik rejimini saqlab qolishga harakat qildi;
d) "Chinnigullar inqilobi" natijasida mamlakat hukumati bir kunda, deyarli qon to'kishlarsiz ag'darib tashlandi;
e) 1967-yil mayda bir guruh harbiylar hokimiyatni egallab, mamlakatda qamal holatini e'lon qildi;
f) general Antonio de Spinola boshchiligida Milliy qutqaruv kengashi tuzildi;
g) hokimiyatga kelgan rejim "qora polkovniklar" diktaturasi nomini oldi;
h) 1980-yillarda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YIH) ga a'zo bo'lib kirgan;
i) 1974-yil "qora polkovniklar" harbiy xuntasi hokimiyatdan ketdi;
j) 1986-yil mamlakat prezidenti lavozimiga Mariu Suaresh saylandi.

A) *I-a, e, g, h, i; II-b, c, d, j; III-f*
B) *I-b, e, d, f, j; II-a, c, g, i; III-h*
C) *I-b, c, g, h, i; II-a, e, d, j; III-f*
D) *I-a, c, d, f, j; II-b, e, g, i; III-h*

19.

Quyidagi ma'lumotlar asosida tarixiy shaxsni aniqlang.

U davlat arbobi edi. O'lka Musulmonlar byurosi tashkilotining raisi bo'lib ishlagan. Musbyuro o'z saflarida milliy kommunistlar va ayrim jadidlarni birlashtirib, sovet rejimining mustamlakachilik siyosatini tanqid qildi. U 1920-yil yanvaridan Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi lavozimida ishlagan. Uning Turkistonni mustaqillik tomon olib boruvchi fikrlari sovet rahbarining qarshiligiga uchradi va amalga oshmadi. 1920-yilning yozida u o'z vazifasidan ozod qilinib, Moskvaga ishga chaqirib olingan.

A) *T.Risqulov* B) *F.Xo'jayev*
C) *M.Cho'qay* D) *Q.Otaboyev*

20.

Quyidagi ma'lumotlar asosida tarixiy davlatni aniqlang.

Ilk o'rta asrlarga oid bu davlatning markazi Oltoy bo'lgan. VI asr ikkinchi yarmida Eftaliylar davlatini tor-mor keltirib, katta davlatga asos solgan. Ushbu davlat hukmdorlari O'rta Osiyoni o'zlariga bo'ysundirib, mahalliy hokimliklardan har yili belgilangan miqdorda o'lpon olib turgan. Bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi hamda Vizantiya, Xitoy va Eron bilan doimiy raqobati natijasida davlat zaiflashib, sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'linib ketgan.

A) *Xioniylar davlati* B) *Tohiriylar davlati*
C) *Kidariylar davlati* D) *Turk xoqonligi*

21.

O'rtayer dengizi sohilida vujudga kelgan va **finikiyaliklar savdo markazi bo'lgan shaharni** aniqlang.

A) *Xersones* B) *Ugarit* C) *Pantikapey*
D) *Olviya*

22.

XIX asrning 70-80-yillarida Germaniya imperiyasi iqtisodi gurkirab rivojlana boshladi.

Qanday omillar imperiya iqtisodining gurkirab rivojlanishiga sabab bo‘ldi?

1) mamlakatning birlashtirilganligi va yagona ichki bozor vujudga kelishi; 2) Berlin jahon moliya markazi maqomini saqlab qolishi (XVI asrdan); 3) jahon savdosida hisob-kitob shu mamlakat pul birligi asosida amalga oshirilishi; 4) Fransiyaning talanishi; 5) sanoatning tez sur’atlar bilan harbiylashtirilishi.

A) *2, 3, 4* B) *2, 4, 5* C) *1, 4, 5* D) *1, 2, 5*

23.

Ma’lumki, 1996-yili Yevropa Ittifoqi a’zolarining soni 15 ta, 2007-yilda 27 taga yetgan.

1973−1995-yillarda quyida berilgan davlatlardan qaysilari Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lib kirgan?

1) Fransiya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Portugaliya; 4) Finlandiya; 5) Malta; 6) Avstriya; 7) Bolgariya; 8) Daniya.

A) *1, 3, 5, 7, 8* B) *2, 3, 4, 6, 8*
C) *1, 4, 5, 6, 7* D) *2, 3, 5, 7, 8*

24.

Movarounnahrdagi ichki ziddiyatlardan foydalanib, Xitoy imperatorining qo‘shinlari 751-yilda Turkistonga bostirib kiradi. Talas yaqinidagi jangda asir tushgan xitoylik jangchilar hunarmandchilikdan xabardor bo‘lib, o‘z hayotlarini saqlab qolish niyatida ular mahalliy hunarmandlarga **qaysi mahsulotni tayyorlash sir-sinoatlarini o‘rgatishgan?**

A) *sopol idishlar tayyorlashni*

B) *rangli shisha tayyorlashni*

C) *kimxob va gilamlar to‘qishni*

D) *qog‘oz ishlab chiqarishni*

25.

Nuqtalar o‘rniga mos keluvchi ma’lumotlarni aniqlang.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida soliq tizimida o‘tkazilgan islohotga ko‘ra, soliqlarning muntazam undirilishi ta’minlangan. Bunga ... erishdi.

1) yerdan olinadigan soliqning mahalliy hokimlar tomonidan yig‘ilishi tartibining o‘rnatilishi orqali;
2) soliqlarning xon tomonidan tayinlangan davlat amaldorlari tomonidan yig‘ilishi tartibining o‘rnatilishi orqali;
3) yerdan olinadigan soliqning mahalliy hokimlar tomonidan yig‘ilishiga chek qo‘yishi orqali;
4) soliqlarning xon tomonidan tayinlangan davlat amaldorlari tomonidan yig‘ilishiga chek qo‘yish orqali.

A) *1, 4* B) *2, 3* C) *3, 4* D) *1, 2*

26.

Ma’lumki, O‘rta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o‘z g‘oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar.

Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi qaysi yo‘nalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar?

1) o‘lkada yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
2) Davlat dumasida savdo-sotiq egalariga imtiyoz berish;
3) qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
4) rus burjuaziyasini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;
5) turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish;
6) soliqlar masalasida radikal islohotlar o‘tkazish;
7) xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish.

A) *1, 3, 5, 7* B) *2, 3, 4, 7* C) *2, 5, 6, 7*
D) *1, 4, 5, 6*

27.

O‘zaro muvofiqlik SAQLANMAGAN javobni aniqlang.

I. Qadimgi Rim; II. Qadimgi Yunoniston; III. Mesopotamiya; IV. Qadimgi Misr;

a) Dionis; b) Maat; c) Diana; d) Shamash; e) Indra; f) Baxus; g) Xronos; h) Sina; i) Anubis;

1) quyosh xudosi; 2) uzumchilik xudosi; 3) chaqmoq xudosi; 4) haqiqat va adolat ilohasi; 5) ov xudosi; 6) olov ilohasi; 7) vaqt xudosi; 8) oy xudosi; 9) marhumlar xudosi

A) *I-a-9; II-c-6; III-e-3; IV-h-7*

B) *I-c-5; II-g-7; III-h-8; IV-i-9*

C) *I-c-5; II-a-2; III-d-1; IV-b-4*

D) *I-f-2; II-g-7; III-d-1; IV-b-4*

28.

O‘rta asrlarda **arab uslubi**da bunyod etilgan me’morchilik inshootini aniqlang.

A) *Avliyo Mark ibodatxonasi*

B) *Al-Hamro saroyi*

C) *Laax monastiri*

D) *Parijdagi Bibi Maryam ibodatxonasi*

29.

Quyida berilgan tarixiy asarlardan qaysi birida Sohibqiron Amir Temurdan tortib, Zahiriddin Muhammad Boburga qadar **temuriylar shajarasi qisqacha sharhlangan**?

A) *"Habib us- siyar"* B) *"Majolis un-nafois"*
C) *"Ravzat us-safo"* D) *"Dastur ul-amal"*

30.

Quyida keltirilgan mualliflarning yozgan asarlari **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping**.

1	Hakim Termiziy	**a**	“Usturlob yasash haqida kitob”
2	Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (Zamaxshariy)	**b**	“Kitob haqiqat al-odamiya”
3	Abu Ali ibn Sino	**c**	“Kitob at-tarix”
4	Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ tarxon	**d**	“Risolatun fi taqsim al-mavjudot”
		e	“Vorislik huquqi ilmi bo‘yicha mashq”
		f	“As-siyosat an-madaniya”
		g	“Kitob surat-al-arz”
		h	“Tahqiqi viloyati Buxoro”

A) *1-a, 2-h, 3-e, 4-f* B) *1-b, 2-c, 3-d, 4-e* C) *1-a, 2-e, 3-h, 4-g* D) *1-b, 2-e, 3-d, 4-f*

31.

Quyida keltirilgan **shaxslarni ularning kashfiyotlari bilan moslashtiring**.

1 E.Rezerford	**a** siyraklashtirilgan havodagi katod nurlarini kashf etdi
2 S.Arrenius	**b** hamma atomlar og‘ir yadroga ega ekanligini isbotladi
3 P.N.Lebedev	**c** diazotlash reaksiyasini kashf etdi
4 P.N.Yablochkov	**d** elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasini yaratdi
	e katod nurlari manfiy zaryadli zarrachalar – elektronlar oqimi ekanligini aniqladi
	f yorug‘likning elektromagnit nazariyasini isbotladi
	g "elekrt shami" deb atalgan lampani ixtiro qildi
	h simsiz telegrafni ixtiro qildi

A) *1-b, 2- d, 3-f, 4-g* B) *1-b, 2-c, 3-e, 4-g* C) *1-a, 2-d, 3-h, 4-e* D) *1-a, 2-c, 3-f, 4-h*

32.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida fandagi inqirozni bartaraf etish jarayonida fizikadan boshlangan va fanning barcha sohalarini qamrab olgan ilmiy-texnik inqilob yuz berdi.

Bu, avvalo, qaysi olimlarning nomi bilan bog‘liq?

A) *Stenli Kohen, Herbert Boyer*

B) *N.G.Basov, A.M.Proxorov*

C) *D.Kilbi, R.Noys*

D) *Maks Plank, Albert Eynshteyn*

33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.

33. **Qaysi shartnomaning imzolanishi Xitoyning yarimmustamlakaga aylanishida muhim bosqich hisoblangan?** **34.** **Qaysi hujjat Buyuk Britaniya bilan uning dominionlari o'rtasidagi munosabatlarni (huquqiy jihatini) belgilab bergan?** **35.** **Quyida berilgan hujjatlarning (shartnoma) qaysi birida Germaniya Federativ Respublikasi (GFR)ni NATOga a'zo bo'lishi nazarda tutilgan?**	A) *Sevr shartnomasi* B) *Parij kelishuvlari (ahdlashuvi)* C) *Myunxen kelishuvi* D) *Simonoseki sulhi* E) *Vestminster statuti* F) *Vashington shartnomasi*

36.

General shtatlar (yalpi toifalar) – Fransiyadagi oliy tabaqaviy-vakillik muassasasi.

a) Ushbu muassasa birinchi bor chaqirilgan vaqtda Fransiyada hukmronlik qilgan sulola nomini yozing.

Javob: a) _____

b) Ushbu muassasa tugatilgan vaqtda Fransiyada hukmronlik qilgan sulola nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

37.

Brest sulhi – Rossiya bilan Germaniya, Avstriya-Vengriya, Bolgariya, Turkiya o'rtasida tuzilgan sulh bitimi.

a) Ushbu sulhni imzolagan Bolgariya davlati rahbarining (chorak asrdan ko'proq vaqt hukmronlik qilgan) nomini yozing.

Javob: a) _____

b) Ushbu sulhni bekor qilgan voqea nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38.

1949-yilga kelib Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviyada kommunistik partiyalar to‘liq hokimiyatni egalladi.

a) Yugoslaviya Federativ Respublikasida eng ko‘p faoliyat yuritgan davlat rahbari nomini yozing.

Javob: a) _____

b) 2006-yilgacha Yugoslaviya davlati tarkibida qolgan 2 ta davlatning nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

39.

Birinchi jahon urushidan so‘ng Millatlar Ligasi Janubi-G‘arbiy Afrikani boshqarish huquqini Janubiy Afrika Respublikasiga (JAR) berdi. BMT 1973-yil JARni Janubi-G‘arbiy Afrikani boshqarish huquqidan mahrum etdi. Mahalliy aholining milliy-ozodlik kurashi 1989-yilda g‘alaba bilan yakunlandi.

a) Janubi-G‘arbiy Afrika qanday nom bilan mustaqil davlat deb e’lon qilindi? (davlat nomini yozing).

Javob: a) _____

b) Tinchlik uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan JAR tarixidagi birinchi qora tanli mamlakat prezidentining nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

40.

Ma’lumki, Chig‘atoy ulusi XIV asrning 40-yillarida ikkiga bo‘linib ketadi.

a) Chig‘atoy ulusining Mo‘g‘uliston deb atalgan qismiga qaysi hududlar kirgan? (hududlar nomini yozing)

Javob: a) _____

b) 1348-yil Mo‘g‘iliston xoni etib ko‘tarilgan shaxs nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

41.

Farg‘ona, Sug‘d, Choch, Tohariston, Xorazm va boshqa G‘arbiy Turk xoqonligining mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan.

a) Ushbu davrda Farg‘onada oliy hukmdor qanday atalganligining nomini yozing.

Javob: a) _____

b) Ushbu davrda Ustrushonada oliy hukmdor qanday atalganligining nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

42.

Shayboniylar o‘z davrida qudratli qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘lganlar. Qo‘shin o‘sha davrdagi harbiy qurol-yarog‘larning barcha turidan mohirona foydalana olgan. Qo‘shin tuzilishi va uning harbiy yurishlari davridagi harakati tizimli va tartibli bo‘lgan.

a) Qo‘shinning o‘ng va chap qanotlarini qo‘riqlovchi maxsus qism nomini yozing.

Javob: a) _____

b) Harbiy harakat vaqtida Oliy bosh qo‘mondon uchun rasmiy qabul marosimi o‘tkaziladigan maxsus joy nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

43.

Rossiya tomonidan bosib olingan hududlarda besh viloyat tashkil qilinib, ular Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.

a) Krasnovodsk, Mang‘ishloq va Marv uyezdlari kirgan viloyat nomini yozing.

Javob: a) _____

b) Farg‘ona viloyati tashkil etilgan vaqtda Turkiston general-gubernatori bo‘lgan shaxs nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

44.

Nuriddin Muhitdinov 1955-1957-yillarda yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimida faoliyat yuritgan.

a) Uning boshqaruvi davrida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimida faoliyat yuritgan shaxs nomini yozing.

Javob: a) _____

b) Uning boshqaruvi davrida O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raisi lavozimida faoliyat yuritgan shaxs nomini yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

45.

Qo‘qon xonligida harbiy xarajatlarni qoplash uchun aholiga "miltiq puli" deb ataluvchi soliq joriy etilgan.

Ushbu soliq o‘rtahol oilalar uchun ... (1) miqdorida belgilangan.

Boy oilalar uchun esa ... (2) miqdorida belgilangan.

a) 1 raqamdagi nuqtalar o‘rniga mos keluvchi so‘zni yozing.

Javob: a) _____

b) 2 raqamdagi nuqtalar o‘rniga mos keluvchi so‘zni yozing.

Javob: b) _____

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

BMBA